

**CHO‘LPON–O‘ZBEK ADABIYOTINING YIRIK VAKILI****Ahmedova Pokiza Rustamovna**

Nukus davlat pedagogika instiuti Turkiy tillar fakulteti talabasi

**Annotatsiya.** Biz bilamizki o‘zbek adabiyotida ,jadidchilik davri yoki jadidchilik adabiyoti katta rol o‘ynaydi. Jadidchilik davri yoki jadidchilik adabiyoti nima aslida, uning zamirida qandayma’ nolar mujassamlashgan.

**Kalit so‘zlar.** Cho‘lpon she‘riyat, xalq, ma’naviyat.

Har bir xalqning shonli o‘tmishi, buyuk tarixi, va albatta, g‘urur va iftixor bilan esga oladigan buyuk bobokalonlari bo‘ladi. Xuddi shu singari bizning ham uzoq va shonli tariximiz, o‘sha tarixda o‘zlarining o‘chmas izlarini manguga qo‘yib ketgan ajdodlarimiz bor. Unchalik uzoqdamas, yaqin, bir asr ilgarigi o‘tmishimizning o‘zidayoq qanchadan qancha buyuk insonlarimiz maguga nomlarini muhrlab ketdi. Ha bu o‘sha jadidchilik davri edi. Yurtimiz mustaqillikka erishgach nomlari qoralanib, yer bilan bitta qilingan, nafaqat o‘zlari, balki asarlarigada ta‘qib qo‘yilgan Behbudiy, Avloniy, Munavvarqori, Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Elbek va boshqalar nomlari qayta tiklandi va xotiralari abadiylashtirildi. Xususan, muhtaram va marhum birinchi prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimovning adabiyot haqidagi gaplarini keltirib o‘tish joiz deb o‘ylayman: “Agar biz O‘zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug‘ kelajagini ulug‘lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo‘lsak, avvalambor, buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarini tarbiyalashimiz kerak. Nega deganda, ulug‘ adib Cho‘lpon aytganidek, “adabiyot yashasa - millat yashaydi”.<sup>1</sup> Buni qarangki, marhum prezidentimiz adabiyot haqida so‘z yuritar ekan, bevosita so‘zining isboti uchun Cho‘lpon so‘zlaridan foydalandi. Bu ham Cho‘lpon ijodiga, nafaqat Cho‘lpon ijodiga, balki jadid davri ijodkorlarining ijodiga yuksak e‘tibor qaratilganidandir. Mustaqillikka erishishimiz bilan, nafaqat Cho‘lpon , balki butun jadidchilik davri ijodkorlarimiz ijodini va nomini oqlash, ular ijodini qayta tadqiq etish boshlandi. Shu jumladan, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Abdulhamid Cho‘lpon to‘g‘risida gapirib: “XX asr boshlaridagi millatimiz taqdirini, uning boshiga tushgan fojialarni, ozodlik va erkinlik qadrini hech kim bu mumtoz shoirimiz kabi yuksak pardalarda kuyilgan emas. El-yurt taqdiri uchun kuyinib, tinim bilmay yashaydigan ana shunday ajoyib insonlarning davomchilari yangi O‘zbekistonning har bir fuqarosi bo‘lishi kerak”,<sup>2</sup> deb ta‘kidlagan edi. Bundan ko‘rinib turibdiki, yurtimizda Cho‘lpon ijodiga yuksak baho berilmoqda.

Cho‘lpon ijodi bilan dastlab 7 sinfda tanishganimdayoq, meni bir savol qiynar edi. Nega endi Cho‘lpon taxallusini olgan ekan? “Cho‘lpon” bu nima degani? Nega o‘z ismi yo familiyasini taxallus qilib olmadi ekan? Shu va shunga o‘xshash savollar javobsiz bo‘lib kelmoqda edi. Shundan so‘ng Esong‘ali Ravshanovning bir maqolasini o‘qib qoldim. Unda shunday deyiladi: “Sharq shoirlari “taxallus”, qozoqlarda “burkanchik, laqab ot”, ruslar “pseudonim” deydigan, turli xalqlarda turlicha ataladigan adabiy atama bor. Gap otda emas, zotda, deganlariday, mazkur atamaning kelib chiqish sabablari va tarixi uzoq hamda bahstlab. Bahstlabligi boisidan ham u qiziq. Sharqda she‘r yozish nimani anglatadi? Bu o‘zni qadrlashni, o‘zlikni anglashni bildiradi. Nazmda mahorat cho‘qqisini zabt etib, muxlislar qalbida hayrat va zavq uyg‘otgan shoirgina taxallusga erishadi. Mahorat cho‘qqisi qay yo‘l va qay usullar bilan zabt etilishi esa alohida mavzudir. Gapni muxatasar qilsak, u hayotda bir bor beriladi. Shoir erishgan taxallus uning bir umrlik hamrohi, hamrohigina emas, o‘zligiga aylanadi.

<sup>1</sup> Karimov Islom. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – Toshkent. Ma’naviyat , 2008. B.139-140.

<sup>2</sup> Mirziyoyev Shavkat. Andijondagi nutqidan.2016.

...olis-olislarda, ko‘z yetmas yerda, nafaqat ko‘z, balki ovoz yetmas yiroqda, qop-qorong‘u osmonning bir chekkasini bexosdan tilgan chaqmoq borliqni bir lahza yoritib o‘tadi. Bir lahzadan keyin olam yana qorong‘ulikka g‘arq bo‘ladi... Keyin taqdir yo‘llari sizni qancha manzillarga boshlab boradi, qancha qorong‘u va yorug‘ kunlarni ko‘rasiz, lekin Hamal oyining o‘sha qorong‘u kechasini bir lahzaga yoritib o‘tgan chaqmoq shu‘lasi xotirangizga muhrlanib qoladi. O‘zbek shoiri Cho‘lponni o‘qiganimda o‘sha chaqmoq shu‘lasini ko‘z oldimga keltiraman. U nega o‘ziga “Cho‘lpon” degan taxallus tanladi ekan, deb qayta-qayta o‘zimga savol beraman. O‘zga taxallus qo‘llaganida, balki uni qurshab kelayotgan zulmatdan omon qolarmidi, deb o‘ylab qolaman. Erta sahar payti ko‘kda paydo bo‘ladigan yorug‘ yulduzni “Cho‘lpon” deyishadi. Afsuski, uning umri qisqa. Bor-yo‘g‘i ikki-uch soatgina osmonda shu‘la sohib, tezda so‘nadi. “Cho‘lpon yulduz hali chiqmagan edi” deganimizda, tun pardasi ko‘tarilmagan erda saharni ta‘riflaymiz. Cho‘lpon shoirning umri ham o‘sha tong yulduziday qisqa bo‘ldi.

U o‘zining dastlabki she‘rlarini “Qalandar”, “Andijonlik”, “Mirzo Qalandar” va “Q” kabi taxalluslar ostida e‘lon qilib yurib, nihoyat, mana shu “Cho‘lpon”ga to‘xtalganida nelarni o‘yladi ekan?” Shu maqola orqali nega aynan Cho‘lponga to‘xtalganiga ma‘lum darajada javob oldim. Biroq “Cho‘lpon” ga to‘xtalganida nelarni o‘yladi ekan?” So‘rog‘idan so‘ng o‘ylanib qoldim. “Shoirlar yarim bashoratchi bo‘ldi”, deb o‘qigandim. Nahotki, Cho‘lpon ham Cho‘lpon yulduzi singari umri qisqa bo‘lishini bilgan bo‘lsa. Balkim bilgan balkim bilmagandir, lekin Cho‘lpon yulduzi tong otishidan darak beruvchi yulduz bo‘lganligini inobatga olsak, shoir Cho‘lpon ham tong otishi uchun (mustaqillikka, istiqloq(tong otishi bu yerda majoziy ma‘noda mustaqillik deb o‘ylayman)ga erishish uchun)) xizmat qilgan yulduz bo‘ldi desak hech mubolag‘a bo‘lmaydi.

Har qanday ijod mahsuli ijodkor shaxsi bilan uyg‘un keladi. Ijodkor va asar munosabati daraxt bilan mevasiga o‘xshatiladi. Biror meva uni yetiltirgan daraxtdan bo‘lakcha bo‘lilmagani kabi badiiy asar ham muallifning shaxsiyati darajasidan balandlay olmaydi. Ijodkorni yanada yaqinroq bilish va ruhini anglash uchun u yashagan davr, ijtimoiy-siyosiy sharoit kabi omillarga e‘tibor qaratish lozim. Shunday ekan, badiiy ijodda muallif shaxsi, iste‘dod va tafakkur ko‘lami hal qiluvchi ahamiyatga molik. Ijodkor faoliyatining mahsuli sanalgan san‘at asari nafaqat badiiy hodisa, balki ruhiy, falsafiy, madaniy-tarixiy hamda diniy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan voqelikdir. Badiiy asar bu–ijodkor badiiy tafakkuridagi borliqning o‘ziga xos aksidir. Cho‘lponning “Tong sirlari” to‘plamiga so‘zboshi yozgan Qodiriy shunday deb yozdi: “Ba‘zi bir o‘rtoqlar Cho‘lponni yig‘loq deb aybsitadilar. Balki, haqlari ham bordir.

Chechaklar o‘skusi ko‘z yoshlarimdan,

Bo‘g‘inlar unguosi o‘ylashlarimdan...

deb hasratlanishi bizning ko‘z o‘ngimizda “yig‘loq” bir shoirmi gavdalantiradir. Biroq shoir shu to‘kkan ko‘z yoshlaridan chechaklar o‘sdirmoqchi bo‘lmasa edi, biz ham uning mu‘tarizlari qatorig‘a kirgan bo‘lar erdik”.

Anqov ta‘nachilar shoirni ranjitishda mudovamat qiladirlar... Oktabr o‘zgarishi qora tunimizning tongini otdirdi esa-da, bu mudhish kechning badnoma ko‘lagalari hamon shoirning yuragini titratdilar va ul nochor yig‘ladi... Menimcha, “Tong sirlari”da ko‘rilgan ko‘z yoshlarining siri shudir”<sup>3</sup>

Yozuvchi shoir ko‘zlarini namlantirgan tuyg‘ular sababini to‘g‘ri anglaydi va boshqalarni ham shunga chaqiradi. Uning to‘plamga kichik kirishso‘z yozishining o‘ziyoq

<sup>3</sup> Qodiriy A. Diyori bakr. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – B. 261.

ko'p narsaga ishora qiladi. Cho'lponga hujumlarning oldini olish maqsadida yozilgan taqdim so'z keyinchalik muallifga ko'p tashvish keltirdi. Har bir ishga katta mas'uliyat bilan yondashgan adib shoirning she'riy nafosati va poetik mahorati, ruhiy holatini hissiy sezimlari orqali nozik ilg'ay bilgan. Uning so'zga talabchan va qattiqqo'l muharrirligini hisobga olsak, Cho'lponga nisbatan munosabati ham oydinlashadi.

Laziz Azizzoda shunday yozadi: "Abdulla Qodiriy Cho'lponning yaqin o'rtoqlaridan bo'lib, ular bir-birlarini yaxshi tanigan va yozgan asarlarini o'zaro muhokama qilib turishardi. Julqunboy Cho'lpon haqida "Navoiydan keyin chiqqan o'zbek shoirlari ichida eng kuchli lirik shoir Cho'lpondir", degan edi. Julqunboy fikrda biroz mubolag'aga yo'l qo'ygan, lekin uning bu fikrida haqiqat ulushi ham yo'q emas".<sup>4</sup>

Adib zamondoshlariga baho berishda kunda-kunora "mubolag'a" qilavermagan, ikkinchidan, shoirning iste'dodiga ishonch bilan qaragan, qolaversa, ijodiga tama aralashmagani bois uni shaxs sifatida hurmat qilgan. Cho'lpon ham bir o'rinda "O'zbekning onasi ikkinchi Abdulla Qodiriyning tug'masa kerak", deydi. Bundan ko'rinib turibdiki, Cho'lpon va Qodiriy o'rtasida do'stona hurmat va mehr bo'lgan.

Cho'lpon turli ziddiyatlar va keskin burilishlarga to'la, murakkab hayot kechirdi. Shaxsiy turmushdagi tartibsizlik, bir joyda muqim qola olmaslik va kutilmagan og'riqli holatlar, davr izg'irini hamda yon-atrofdagi maslakdoshlarining ikkilanishlari uning ruhiyatiga jiddiy ta'sir o'tkazgan. Cho'lpon asarlari biografik kontekstda o'rganilsa, shoir hayotining hali ko'p sirlari oydinlashadi. Cho'lponshunos Dilmurod Qur'onovning ishlarida shoirni tushunishga intilish, masalaga mantiq ko'zi bilan qarash, munosabatda xolislikka tayanish kabi ijobiy xislatlar ustuvor turadi. Jumladan, V. Yan kundaliklarida yozishicha, Cho'lpon unga 1933-yilda shunday hikoya qiladi: "Yoshlik chog'imda Farg'onada gazmol bilan savdo qiluvchi otam musulmonchilikka haddan ziyod berilgan bo'lib, mullalar bilan do'st tutungan edi. U meni ham mullavachcha qilib o'stirish niyatida tahsil ko'rish uchun madrasaga bergan... Ammo mudarrislik qilish o'rniga men milliy o'zbek yozuvchisi bo'lishga ahd qildim, otamdan ham, mullalardan ham qochib Toshkentga bordim va u yerda she'rlar, hikoyalar yozib, jurnallarga yubordim" degan fikrlarni aytib o'tadi. Endi Dilmurod Qur'onovning bu xabarlariga bildirgan fikriga e'tibor qaratsak: "...1914-yil aprelda Cho'lpon otasi bilan "Sadoi Farg'ona"ning Andijondagi vakili bo'lib turgan. Ayni shu vaqtda, 1914-yilning aprel oyida, Toshkentda chop etilgan "Sadoi Turkiston" gazetasida uning "Turkistonli qardoshlarimizg'a" nomli she'ri va "Qurboni jaholat" hikoyasi e'lon qilingan. Demak, Cho'lponning oldida milliy yozuvchi bo'lishi uchun otasidan qochib Toshkentga borish zarurati bo'lmagan. Xo'sh, u holda nima uchun shoir bu xil ma'lumotlarni berayotir? Shuning uchunki, Cho'lpon V. Yan bilan suhbatlashgan davrda—30-yillarda vaziyat ancha qaltis edi. Shunday bir sharoitda Cho'lpon o'ziga "zamonbob biografiya" to'qigan bo'lishi ehtimol".

O'sha davrlarda ziyolilarni, xat-savodi borlarni, umuman, ilmiy qatlamni ta'qib ostiga olish boshlangan bir davr edi. Arzimagan bir gap yo jumla uchun umrbodga yo'q bo'p ketish ehtimoli yuqori edi o'sha kezlarda. Buni qarangki, romanchiligimiz asoschisi bo'lgan Abdulla Qodiriy 1926-yil "Yig'indi gaplar" maqolasi sabab qamoqqa olingan bo'lsa, oradan bir yil o'tar-o'tmas, ya'ni 1927-yildan Cho'lponni ta'qibga olish kuchayadi. Aslida bundan bir necha yillar ilgari Cho'lpon haqida matbuotda birinchilardan bo'lib iliq fikr bildirgan olim Zarif Bashariy 1923-yil 4-may kuni "Turkiston" gazetasida Cho'lponning birinchi to'plami "Uyg'onish"ga taqriz e'lon qiladi va unda: "Cho'lpon o'rtoq keyingi davrdagi o'zbek shoirlaridan eng oldingisi va chin ma'nosi bilan shoir deb atalishga loyiq bo'lganligidan uning she'rlarini chin adabiyot va she'r ko'zi bilan ko'rib tekshirish va tanqid qilishga yaraydi". Bunda tashqari Vadud Mahmud ham "Buloqlar"

<sup>4</sup> Azizzoda. L. Cho'lpon kim edi?—Yoshlik. 1988. 10-son. —B. 67

to‘plamiga yozgan taqrizida “bugungi o‘zbek adabiyotiga yangi bir to‘n kiygizildi”, deb aytib o‘tadi. Abdurahmon Sa‘diy Cho‘lpon ijodiga: “u yonadur ham yondiradur” deya qisqacha ta‘rif berib o‘tadi. “Tong sirlari” to‘plamiga qisqacha so‘zboshi yozgan Abdulla Qodiriy fikri sizga ma‘lum (6- betga qaralsin(!)) Shu joyda masalaning yana bir tarafiga e‘tibor berib o‘tishimiz kerak.

## References

1. Sharafiddinov Ozod. Cho'lponni anglash, — T.: «Yozuvchi», 1994, 46-bet.
2. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik. — T.: «O'qituvchi», 2004,